



UO‘K: 1(091) + 27(091)

TURKIY TASAVVUFNING BUYUK NAMOYANDASI
ВЕЛИКИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ ТУРЕЦКОГО СУФИЗМА
A GREAT REPRESENTATIVE OF TURKISH SUFISM

Vohidova Dilshoda Vohid qizi¹

¹Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, Falsafa” kafedrasida o‘qituvchisi

Berdiyev Orifjon Lermontovich² 

²Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, Falsafa” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahonga mashhur yassaviya tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning istedadli shogirdi, turkiy tasavvuf shariyatining noyob namoyondasi Sulaymon Boqirg‘oniy haqida ma‘lumot beriladi. Sulaymon Boqirg‘oniyning ma‘naviy merosini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish yoshlar tarbiyasi uchun muhimdir. Inson ruhiyatini tarbiyasi oid o‘g‘itlari kelajak avlod uchun o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim ibrat maktabi ekanligi maqolada aks etgan.

Аннотация

В статье представлена информация о Сулеймане Бокиргани, талантливом ученике Ходжи Ахмада Яссави, основателя всемирно известного ордена Яссавида, уникальном представителе турецкого суфийского шариата. Социально-философский анализ духовного наследия Сулеймана Бокиргани важен для воспитания молодежи. В статье говорится о том, что учения о воспитании человеческого духа являются важным уроком, который следует усвоить будущим поколениям.

Abstract

This article provides information about Suleyman Bokirgani, a talented disciple of the founder of the world-famous Yasaviya order, Khoja Ahmed Yasavi, a unique representative of the Turkish Sufi Sharia. The socio-philosophical analysis of the spiritual heritage of Suleyman Bokirgani is important for the education of young people. The article reflects that his teachings on the education of the human spirit are an important school of thought that should be studied by future generations.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, tariqat, ma‘naviyat, ma‘rifat, jism va ruh, adabiyot, ilm, tarbiya, nafs, ahloq, ishq.

Ключевые слова: суфизм, орден, духовность, просветление, тело и душа, литература, наука, образование, душа, мораль, любовь.

Key words: Sufism, order, spirituality, enlightenment, body and soul, literature, science, education, ego, morality, love.

KIRISH

“Jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo‘lsa, uning ruhi va joni ma‘naviyatdir”. [1] Ma‘naviyat tarixidan etib kelayotgan manbalarni o‘qish, ibrat olish orqali rivojlanib boradi. Ma‘naviy rivojlanish jarayonida tasavvufning o‘rni beqiyos. Tasavvuf insonning ruhiy pokligi, aqliy sog‘lomligini ta‘minlovchi muhim ta‘limot bo‘lib, “tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin”. [2]

Tasavvuf rivojida ko‘hna Xorazm tarixini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi, bu maskan fan, adabiyot, ma‘daniyat va ijtimoiy taraqqiyot markazlaridan biri bo‘lgan. Minglab serqirra ilm sohiblari qatoridan Sulaymon Boqirg‘oniy ham munosib joy olgan shu o‘lkaning buyuk farzandi bo‘lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sulaymon Boqirg‘oniy Xorazmning Boqirg‘on degan kentida tug‘ilib (tug‘ilgan yili aniq emas) 1186 yoki 1192 yillarda vafot etgan. Sulaymon Boqirg‘oniy turkiy tasavvuf shariyatining jahonga mashhur vakili Xoja Ahmad Yassaviyning noyob istedad sohibi bo‘lgan shogirdi. Sulaymon Boqirg‘oniyning ma‘naviy merosini o‘rganish, ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish yoshlar tarbiyasi uchun muhim. Zero, prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “...buyuk ajdodlarimizning boy diniy-

FALSAFA

ma'rifiy merosi biz uchun bebaho manba...". [3] Bu kabi manbalarni barcha makon va zamon uchun o'rganish shartdir.

Sulaymon Boqirg'oniylar tarixatda ham, shariyatda ham u ustozlari an'analari davomchisi bo'ldi. Uning ta'rifiga ko'ra, Ahmad Yassaviy "Mashoyihlar ulug'i", "Ikki jahon ko'z gusi" bo'lmish piri komildir:

Yassi suvining orasi, yotur gavhar parasi,
Mashoyihlar sarasi shayxim Ahmad Yassaviy,
Qarchig'oni qishlog'an, shunqor, lochin ushlag'an.
Sonsiz murid boshlag'an shayxim Ahmad Yassaviy.
Shariati orasta, shariqati payvasta,
Haqiqatda shohista shayxim, Ahmad Yassaviy.

Boqirg'oniylar turkiylar xalqlar orasida Hakim ota laqabi bilan ham mashhur bo'lgan. Moziyda yaratilgan ba'zi bir asarlarda Sulaymon ota va Hakim ota boshqa shaxslar sifatida noto'g'ri qayd etilgan.

Alisher Navoiy "Nasoyimul muhabbat"da yozadi: "Hakim Ota - Oti Sulaymondur. Xoja Ahmad Yassaviyning muridudur. Hamonki, bir kun Xoja tabxe (ovqat pishirish) buyurg'ondurlarki, matbaxiy (oshpaz) o'tun etmaydur deb kelgandur. Alar ashobg'a degandurlarki, yozidin o'tun terib kelturing va ul zamon yog'in yog'odur ekandur. Ashobkim, o'tin terib turlar, matbaxg'a (oshxonaga) kelguncha yog'un jihatidan o'tunlar ho'l bo'lg'ondur. Hakim ota tergan o'tunlarni to'nig'a chirma, quruq kelturgandur. Xoja hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg'a bu laqab andin qolg'andur va Hakim otag'a hikmat tili go'yo bo'lubtur".

Alisher Navoiy Hakim otaning hikmatlari Turkilar orasida shuhrat topganligini ta'kidlab, ulardan birini misol keltiradi:

Tiki turg'on to'badur,
Borg'onlarni yutadur.
Borg'onlar kelmas bo'ldi
Magar manzil andadur.

Ushbu misralardan ham anglash mumkinki, Boqirg'oniylar shirlarining tili sodda, ifodasi xalqona bo'lgan. Lekin bu So'fiy shoir ijodiyotining tub mohiyatini tasavvufiy g'oyalari tashkil etadi. Boqirg'oniylarning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi asarlari Turkistonda keng tarqalib, sevib o'qilgan. Xusayn Voiz Koshofiy Boqirg'oniylarni "Darveshlar ahvolidin turkiylar tilda kalimotu hikmatimiz va latoyifu ibratangizlari Turkiston viloyatida ma'ruf va mashhur va ularning favoyidi anfosi qudsiylaridandur" – deb ta'riflaydi.

Boqirg'oniylarni o'tmish ajdodlarimiz "aqli komil" va "ma'rifati shomil", "qanoati tamom", "shukrani ne'mati ilohiy" dan ta'lim o'rgatgan shoir bo'lganligi uchun qadrlashgan. U "Lutfu muruvvat", "Izzati mutavoze", "Axloqi hamida", sidqu sadoqatni ulug'laganligi sababli asrlar davomida el mehrini qozongan.

Boqirg'oniylar ko'nglida "shavqi ilohiy va zavqi ilohiy" tug'yong' qilgan murabbiy. Uning tafakkur kuchini to'g'ri belgilash – taxayyul sirlarini kashf etish demak. Ma'lumki, har qanday din va chinakam mistikaning asosida "dunyo"ni tark qilish mayllari mavjuddir. Lekin bu mavjud olamga nafarat yoki badbinlik aqidasi ifodalamaydi. "Tarki dunyochilik" - ruhiy mashq, olam go'zalliklarining mutlaq mohiyatiga yetishish tajribasi. Uning mundariyasi juda keng va insonning botiniy hayotini tushunmoq uchun mislsiz bir "hujjat"dir. Ma'lumotlarga ko'ra, Iroq shayxi Xuroson shayxiga bir necha qiyin savollar bilan murojaat qilganida savollarni u Ahmad Yassaviyning xalifalariga yo'llaydi. Tasavvufga doir o'sha savollarga Hakim ota she'r bilan javob qaytaradi. Uning bir baytida bunday deyilgan ekan:

Har kim ko'rsang Xizr bil
Har tun ko'rsang Qadr bil

Bayt mazmunini biz "inson farzandini kamsitma. Har qaysi odam Xizr timsoli, uni qancha ko'rsang o'shancha e'zozla va manzur qil", deb sharhlaymizmi? Bunday talqin ham Boqirg'oniylarning pand-nasihat so'zlari omma ongini "zaharlashga" qo'l kelgan deyishga asos bermaydi. Mutlaq haqiqatga erishishning yagona yo'li va vosita yo'q. Ilohiy ishq kaltabinlikka ziddir. Chin oshiq borki, barchasining jonni jonon bilan topishmoqqa qodirdir. Ma'shuqi azal husn nuridan yorishmagan tun yo'q. Yeru ko'k, oyu quyosh, tog' va daryo-xullas, butun mavjudot uning zohiriy timsollari. Bayt tarkibidagi asl ma'no ana shu. Demak, shoir bu g'oyani ilgari surishda vahdati ta'limotiga suyangan. Shuning uchun u "Sofiy bo'lib" "Haqq'a yonib", nafsga qahr qilish bilan qanoatlanmasdan "sirin halqdin gezlab" Mansur yanglig' "Haqiqat bozorinda asir" bo'lmoqni ko'zlagan.

Qachon bo'lg'ay visoling, jamolingni ko'rsam man,
 Qachon bo'lg'ay visoling, jamolingni ko'rsam man.
 Nazar tegsa ul zamon, ochilur chechak ming alvon,
 Farah qilur bunda jon, jondin kechib o'lsam man.
 Jondir kechmay ish bitmas, nafsi ammoratima,
 Quruq da'vo sud etmas, yolg'on ko'ngul bersam man.
 Da'vo tilim soni yo'q, ishqsizining joni yo'q,
 Dardsizlarga davo yo'q, tabibimdin so'rsam man.
 Tabib sensan da'vo qil, tabibimdin so'rsam man.
 Tabib sendan da'vo qil, xojatimni ravo qil.
 Fazling birla yoriy qil, yo'lsiz qadam ursam man.
 Qul Sulaymon so'zladi, sirin xalqdin gezladi,
 Suratsizni izladi, kerak diydor ko'rsam man.

Ko'ryapsizki, Boqirg'oniyl "nafsi ammora"ni tilga olish bilan she'rxonni botiniy illat va nuqsonlarga qarshi turish, ulardan ko'nglini poklashga chorlagan. Uning talabi ishq iymon rostligi, quruq da'vo va riyoni la'natlashdir. "Tasavvuf -o'limning tirikligi, tiriklikning o'limidirki, bu ma'naviy ruhiy hayotda tirilib, nafsoniy hayotda o'lmoq ma'nosini bildiradi" - deydi bobo Tohir. Ayni shu haqiqat Boqirg'oniyl she'rlarida ham aksini topgan.

Afsuski, Boqirg'oniyl ijodiyotining tub mohiyati to'g'ri belgilanmasdan, uzoq vaqtlar johillik bilan qoralab kelindi.

Diniy mifologiya va tasavvuf falsafasi Boqirg'oniyl asarlariga o'zgacha nigoh bilan qarash, ularning majoziy mazmunlarini boshqacha yo'nalishda talqin qilishni talab etadi. Shoir manzumalari bu dunyoni do'zaxga aylantirmaslik, nafsi havoga berilib Xalq boshiga qiyomat azoblarini solmaslik, ong qullaridan xalos bo'lish, din qudratini ulug'lash kabi ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarni ifodalaydi.

Olim Matan Mallaev Boqirg'oniylning "reaksion she'rlar" yaratishini bevosita Ahmad Yassaviyga bog'laydi; "Boqirg'on kitobi"dagi she'rlar g'oyasi, uslubi va tili jihatidan Ahmad Yassaviy she'rlariga shunchalik yaqin va monandki, ba'zan ularni bir-biridan ajratish ham amri maholdir". G'oya, uslub, tilda chindan ham o'xshashlik kuchli. Qul Sulaymon, Hakim Sulaymon, Hakim ota tahalluslari bilan yozilgan she'rlar shakl va ma'no, obraz va ohanglarda Yassaviy hikmatlariga yaqin, goho favqulodda o'xshash, Ahmad Yassaviy qiziqtirgan bosh masalalarga Boqirg'oniyl befarq qolmagan. Umuman, "Devoni hikmat" ruhidan Boqirg'oniyl asarlarini ajratib bo'lmaydi. Shu g'oyaviy-badiiy uyg'unlikni Kuplizoda "Yassaviylikning xususiy odobi" ekanligini ta'kidlab deydi; "Hakim Sulaymon ota bu an'anani ilk daf'a ta'asis etmog'i nuqtai nazaridan Yassaviy izdoshlari orasida eng muhim mavqega erishishga haqli edi. Uning asarlari ham sakkiz yuz yildan beri Shayxning asarlari ila barobar xalq orasida barhayot yashab kelganligi bundan dalolatdir".

Alohida ta'kidlash joizki, Boqirg'oniyl Yassaviyning munosib shogirdi bo'lganligini ta'kidlaydigan naql va hikoyatlarning ko'p yaratilganligi ham tasodifiy emas. Emishki, Sulaymon madrasaga qatnaganda boshqa bolalarga o'xshab "Qur'on"ni yelkasiga olmasdan ikki kaftida ko'tarib qadam bosar, tahsil tugagach, uyiga yetib olguncha madrasaga orqa o'girmas ekan. Bir kun masjid yonida o'tirgan Ahmal Yassaviy bu holni ko'rib, hushdan ketadi. Shundan e'tiboran Xoja "Qur'on" o'qimoqqa Sulaymonni yoniga olibdi. O'n besh yoshga kirgandan so'ng esa Yassaviyga u murid bo'lgan ekan. Bir rivoyatda dashtdan o'tin terib kelish voqeasi Xizr alayhissalomning Yassaviyga mehmon bo'lib kelishiga bog'lanadi. Sulaymonning tadbirkorligidan mutaassir bo'lgan Xizr unga "bundan so'ngra laqabing Hakim bo'lsin. Jim yurma, fayz izhor qil", degan ekan. Shu-shu Sulaymon hikmatlar ayta boshlagan ekan.

XULOSA

Sulaymon Boqirg'oniyl she'rlari "Boqirg'oniyl kitobi" nomi bilan Qozonda bir necha marotaba bosilgan. Mazkur to'plam 1848 va 1898 yillarda chiqqan, Sharqshunoslik saqlanayotgan (Inv. №12646, №289) shu ikki kitob asosida dunyoga kelgan. To'plamda tasavvuf dil pokligi ruh komilligiga o'rgatadigan ta'limot ekanligi aks etadi. Tasavvufdagi ko'p fikrlar nafs va ahloq, ruh va ishq to'g'risidagi she'rlar keltiriladi. Boqirg'oniylning ilohiy ishq haqidagi falsafiy, ahloqiy qarashlari bugungi globallashuv davrida, ma'rifatli jamiyatda o'rganilishi lozim bo'lgan ilmdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent – 2022. 249-b.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм И суфийская литература. –М.: Наука, 1995. С.54

FALSAFA

3. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent – 2022. 283-b.
4. Sulaymon Boqirg'oniy "Boqirg'oniy kitobi" Sharqshunoslik (Inv. №12646, №289)
5. Najmiddin Komilov Tasavvuf. "O'zbekiston" – "Toshkent" Toshkent– 2009. 283-b.
6. Bakhtiyorovich, D. B. (2019). Tolerance of the Khojaghand-Nakbandian order of tolerance. *Indonesian Journal of Education Methods Development*, 8, 10-21070.
7. Tursunovna, S. O., Bakhriddinovich, M. S., Bakhtiyorovich, D. B., & Makhmudovna, G. M. (2020). The issues of human and humanity in the teaching of Abdulkhalig Gijduvani. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 14-17.
8. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'МUN SCIENCE", 1(2).
9. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, *SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 2(13), 191-197.
10. Homidjod Homidiy Tasavvuf allomalari. "Sharq" Toshkent-2009. 44-b.